



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI ABU RAYHON BERUNIY
NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“QURILISH VA ARXITEKTURA SOHASIDAGI INNOVATSION
G'OYALAR, INTEGRATSIYA VA TEJAMKORLIK”

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
«ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ, ИНТЕГРАЦИЯ
И ЭКОНОМИКА В ОБЛАСТИ
СТРОИТЕЛЬСТВА И АРХИТЕКТУРЫ»

IN THE NAME OF
ABU RAYHAN BERUNI
URGANCH STATE UNIVERSITY

“INNOVATIVE IDEAS, INTEGRATION,
AND ECONOMY IN THE FIELD OF
CONSTRUCTION AND
ARCHITECTURE”
SCIENTIFIC AND PRACTICAL
REPUBLICAN CONFERENCE

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
1-TO'PLAMI



TASHKILIY QO‘MITASI:

RAIS:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori v.v.b.,
professor - **S.U. Xodjaniyazov**

HAMRAISLAR:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **Z.Sh. Ibragimov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti xalqaro hamkorlik
bo‘yicha prorektori, f-m.f.d., professor - **G‘.U. Urazboyev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, Texnika fakulteti
dekani, f-m.f.n., dotsent - **M.Q. Qurbanov**

Toshkent davlat transport universiteti, Avtomobil yo‘llari muhandisligi
fakulteti dekani, t.f.d., professor - **A.X. Urokov**

Xorazm viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi, Urganch
tuman bosh arxitektori - **R.B. Matmurov**

ILMIY KOTIB:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, “Qurilish”
kafedrası dotsenti, PhD - **A.A. Qutlijev**

TASHKILIY QO‘MITA A‘ZOLARI:

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti yoshlar masalalari
va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektori, PhD, dotsent - **D.I. Ibadullayev**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti moliya-iqtisod
ishlari bo‘yicha prorektori - **A. Atajanov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Qurilish”
kafedrası mudiri, t.f.n., dots. – **Q.K. Axmedov**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Arxitektura”
kafedrası mudiri **R. Palvanov**

t.f.d., prof., R. Raximov, t.f.d., prof., B.Raxmonov, t.f.n., dots., K.Kuryozov, i.f.n., dots., N. Sattorov, a.f.n., dots., M. Setmamatov, a.f.f.d., dots., S. Atoshev, a.f.f.d., Sh. Abdullayeva, dots., Sh. Xo‘janiyozov, t.f.f.d., S. Sultanova, A. Atamuratov, A. Seyitniyozova, N. Kariyeva, S. Rajabov, S. Yusuf, A. Sobirov, X. Madirimov, X. Radjabov, I. Bekturdiyev, B. Radjapov, A. Xodjayazov, A. Matkarimov, M. Djumanazarova, R. Nafasov, Sh. Navruzov, Y. Tadjiev, R. Sovutov, A. Samandarov, L. Yusupova, Sh. Masharipov, H. Bekchanov, D. Shalikaeva, S. Nurmuhammedov, I. Matnazarov, Q. Soburov, K. Yuldashev, A. Bobojonov, Sh. Nurimetov, H. Masharipova, S. Qurambayev, M. Ashurova, A. Shomurotov.

ILMIY-TEXNIK ANJUMAN DASTURIY QO‘MITASI:

Rais: “ARXITEKTURA, QURILISH, DIZAYN” ilmiy-amaliy jurnalining bosh muharriri, i.f.d., prof. **Nurimbetov Ravshan Ibragimovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida 2025 yil 15-16-sentabr kunlari “Qurilish va arxitektura sohasidagi innovatsion g‘oyalar, integratsiya va tejamkorlik” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan maqolalar mazmuni, ilmiy salohiyati va keltirilgan dalillarning haqqoniyligi uchun mualliflar mas’uldirlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muzeylar faoliyatida yangi qaror ijrosi / <https://yuz.uz/news/muzeylar-faoliyatida-yangi-qaror-ijrosi>
2. Лысикова Н.Р., Polyakova O.A. Virtualный музей в системе школьного образования. // Образование в современном мире. – 2016. - №11. – с.29-34.
3. YUdkina E.S. Prosветitelskie vozmozhnosti virtualnykh muzeev. // Vestnik nauchnoy assotsiatsii studentov i aspirantov istoricheskogo fakulteta Permskogo gosudarstvennogo gumanitarno-pedagogicheskogo universiteta. Seriya: Stadia historica jenium. 2020. №1(16). S. 222-230.

XIVA SHAHRI ICHAN QAL'A HUDUDIDAGI TURAR JOYLARNI RESTAVRATSIYA QILISH VA MEXMONXONAGA QAYTA JIXOZLASH BO'YICHA ILMIY AMALIY LOYIHA TAKLIFI

Bobojonov Anvarbek Raximberganovich

UrDU "Qurilish" kafedrası o'qituvchisi

Setmamatov Maqsud Bekturdiyevich

UrDU "Arxitektura" kafedrası dotsenti

Xudayberganov Bekzod Allaberganovich

Xorazm Ma'mun akademiyasi laboratoriyasi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xiva shahridagi Ichan Qal'a hududidagi "Zargarlar" mahallasida joylashgan an'anaviy uy bo'yicha o'tkazilgan monitoring kuzatuv ishlari va uni saqlab qolish masalalari yoritilgan.

Аннотация

В статье приведены некоторые результаты мониторинговые натурные исследование и определение технического состояния традиционный жилого дома, которые находится в территории Ичан Кале махалле "Заргарлар", города Хивы.

Abstract

The article presents some results of a monitoring field study and determination of the technical condition of a traditional residential building located in the territory of Ichan Kala mahalla "Zargarlar", the city of Khiva.

Kalit soʻzlar

anʼanaviy uy, yodgorlik, texnik holat, namlik, shoʻrlanish, devor, sinch nigirik, saqlash, taʼmirlash loyiha.

Ключевые слова

традиционный жилой дом, памятник, техническое состояние, влажность, засоленность, стены, синч-нигирик, сохранение, реставрация, проект.

Keywords

traditional residential building, monument, technical condition, humidity, salinity, walls, sinch nigirik, preservation, restoration, project.

Kirish

Jahon madaniy meʼmoriy yodgorliklaridan hisoblangan mustaqil mamlakatimizning madaniy gʻavxari xisoblangan qadimiy Xiva shaxrimiz oʻzining qariyb 2500 yildan buyon tashkil topib, qurilib, vayronalarga aylanib va yana qayta qayta qurilib gullab yashnab kelmoqda. Bu davr mobaynida shaxar bir necha bor qayta bunyod etildi. SHaxar saltanat markazi boʻlgandan soʻng tezlik bilan katta xajmda bunyodkorlik ishlari olib borildi. Ayniqsa meʼmorchilik sohasining beshigi hisoblangan turar joylar meʼmorchiligida salmoqli ishlar qilindi.

Asosiy qism


Xiva turar joy arxitekturasida oʻziga xosligi Oʻrta Osiyoning boshqa xududlaridagi turar joylardan ajralib turadi. Buning sababi, avvalo xudud iqlim sharoiti va unda ishlatiladigan qurilish ashyolaridir. Biz bilamizki, Xorazm voxasi Amudaryoning quyi qismida quruq subtropik iqlim zonasida joylashgan. Yoz fasli issiq jazirama boʻlib, xavo xaroarti 45°C gacha qizadi, yogʻingarchilik yiliga 130...160 mm, yogʻingarchilik kam. Qish mavsumi esa quruq sovuq, xavo xarorati - 25°....-32°C soviydi. Yilning oʻrtacha sakkiz oyida axoli asosan uyning tashqarisida yashaydi.

Qolgan 4 oyini uy ichkarisida yashaydi. Bunday sharoitni hisobga olgan qadimgi meʼmor quruvchi ustalarimiz voxada oʻziga xos turar joy meʼmoriy yechimlarni oʻylab topishgan. Bunda yoz paytida uy tashqarisida boʻlish hisobga olingan. Yozning issiq havosidan saqlanish, yengil shabada hosil qilish maqsadida

ayvon konstruktsiya bunyod etish bo'ldi. SHu bilan birga qish payti issiq xavoni hosil maqsadida ham ayvon konstruktsiyasidan foydalanildi.



134. Дворик жилого дома. 1871



Xiva turar joylarining asosiy dominant qismi bu ters va o'ng ayvonlar bo'lib, boshqa xonalar mazkur ayvonlar atrofiga joylashtiriladi.

Ikkinchidan, yuqorida aytib o'tganimizdek, Xiva turar joylari, ayniqsa shaxar turar joylari qurilishida ishlatiladigan qurilish material va konstruktsiyalaridir. Bizga ma'lumki, insonlar turar joy qurilishida arzon va qayta ishlanishi oson bo'lgan ashyo va buyumlardan foydalanishga harakat qilishadi. Xiva turar joy qurilishida asosan sinch konstruktsiyasidan foydalaniladi. Bunda asosiy bino karkasi maxalliy terak va gujum daraxtidan tayyorlangan taxta va yog'och materiallarida foydalanilgan. Krakas konstruktsiyalarini to'ldiruvchi material sifatida qo'lda quyilib tayyorlanga xom g'isht va somon loy ishlatilgan.

1990 yilda Birlashgan millatlar tashkilotining UNESCO tashkiloti tomonida Xiva shaxri tarixiy me'moriy qismi Ichon qal'a hududi Butunjaxon tabiiy va madaniy merosi Ro'yxatiga kiritildi. Mazkur tashkilot tomonidan bizning shaxrimizning Ro'yxatga olinishi bu ushbu xududdagi 50 dan oshiq madaniy meros obidalari va ular atroflarida xaraktdagi qadimiy turar joylar bilan birgalik yaxlit madaniy me'moriy

ansambl kompleksining tashkil etganligi, bunday ansambl komplekslar dunyoning hech qayerda takrorlanmasligi va o'zgacha loy arxitekturasidir.

Lekin keyingi yillarga nazar solsak, mazkur turar joylarning arxitekturasida an'anaviylikdan chekinish, mazkur tarixiy ansamblga mos kelmagan arxitektura va qurilish elementlari kirib kelmoqda. Bu o'z navbatida yuqorida qayd etilgan nufuzli xalqaro tashkilot mutaxassislarining e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Bu masalada mazkur tashkilot tomonidan e'tiroz va ogoxlantirishlar taqdim qilindi va qilinmoqda. Albatta, buni bir qancha sabablari bor. Birinchidan, xayotimizga yangi muxandislik kommunikatsiya tarmoqlari kirib keldi. Ikkinchidan, yuqorida aytib o'tganimizdek, Ichon qal'a hududi xarakatdagi axoli zonasidir. Demak, bu yerda yashovchi insonlar xam zamonaga moslashadi.

Uy inter'erlarida zamonaviy qulayliklar yaratishga, eksteriorda esa zamonaviy arxitektura elementlari ishlatishga xarakat qilishadi. Xattoki binolar asosiy va qoplovchi konstruktsiya va materiallarida xam zamonaviy elementlardan foydalanishmoqda. Xayotimizga kundan kunga fan va texnikaning yangiliklari kirib turmush farovonligimizni yaxshilab bizga bir qancha qulayliklar yaratyapti. Mazkur qulaylar insonlar xayotiga ijobiy ta'sir qilib, ikkinchi tomondan xududning betakror tarixiy me'moriy ko'rinishiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday paytdan qandaydir boshqa bir yechimlarni izlashga bizni undaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan bir qancha negativ faktorlarni yechimi sifatida biz quyidagi loyixa takliflarini keltiramiz.

Tarixga nazar solsak xozirgi kunimizgacha yetib kelgan turar joy arxitektura namunalari Xiva shaxrida deyarli qolmagan. Faqat ularning ayrim fragmentlarini ba'zi turar joylarda uchratishimiz mumkin. SHuningdek, o'tgan asrning 60 va 70 yillarda ijod qilgan arxitektura va arxeologiya olim va mutaxassislarining yozib qoldirgan ilmiy asarlarida xamda tarixiy janrda ijod qilayotgan rassomlar ijodiy asarlarida xam ko'rishimiz mumkin. ular quyidagilar:




Жилые дома в Ичан кала. Хива. начало XX в.
Фото Х. Диванова



42. Городской жилой дом Хивы.
Общий вид.

43. Городской жилой дом Хивы:
а) разрез; б) план первого
этажа; в) план второго этажа.





Yuqorida keltirib o'tilgan bir qancha negativ faktorlarni yechimi sifatida biz quyidagi loyiha takliflarini keltiramiz. Loyixalashtirilayotgan ob'ekt Xiva shaxar Ichon qal'a xududida Zargarlar ko'chasi 101 uy manzilida joylashgan bo'lib, loyixaviy takliflarimiz quyidagicha:


на улице Заргарлар дом 101 в "Ичан-кала", г.Уфа.



Вариант-1
на улице Заргарлар дом 101 в "Ичан-кала",
ПЛАН







Xulosa

Xulosa o'rnida quyidagilarni keltirib o'tamiz. Loyixa taklifi konkret takliflar asosida olib boriladi. Mazkur loyixa taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi xuzuridagi Madaniy meros agentligi Bosh boshqarmasi Ilmiy ekspert Kengashi tomondan ma'qullangan bo'lib, restavratsiya vaqtida ushbu loyiha takliflaridan foydalanib, Xiva madaniy meros kelajak avlodlarga to'la to'kis yetkazish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. МАНЬКОВКАЯ Л. М. Памятники зодчества Хорезма.
2. Пугаченкова Л.К. Шахрисабз, Термез, Хива.
3. Материали бытовой технической инвентаризации по Хорезмской области.

FARG'ONA VODIYSI NAMANGAN VILOYATIDA JOYLASHGAN TARIXIY ZIYORAT MAJMUALARINING ME'MORIY TAHLILI (SULTON UVAYS QARONIY MAJMUASI)

Adilov Zafar Ravshanovich

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti mustaqil izlanuvchisi, arx.f.f.d
(PhD)**

email: adilovzafar615@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola ziyorat turizmi doirasida tarixiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan majmualarning asosiy xususiyatlari va ularning o'z davriga tegishli arxitekturaviy jihatlarini tahlil qiladi. Maqola Farg'ona vodiysida joylashgan ziyoratgohlar misolida ularning hududiy-tarixiy, madaniy va me'moriy xususiyatlarini ochib beradi. Maqolada ziyorat turizmining rivojlanishida mazkur majmualarning roli, shuningdek, ulardagi me'moriy uslublar, kompozitsiyaviy yechimlar va hunarmandchilik an'analarga alohida e'tibor qaratiladi. Ziyorat ob'ektlarining zamonaviy turistik infratuzilma bilan uyg'unligi va ularni saqlash, tiklash masalalari ham muhokama qilingan. Mazkur tahlil Farg'ona vodiysidagi tarixiy merosni turizm orqali rivojlantirishda muhim amaliy xulosalarni taqdim etadi.

Аннотация

В данной статье анализируются основные особенности комплексов, имеющих историко-духовное значение в рамках паломнического туризма, и их архитектурные аспекты, относящиеся к их времени. В статье на примере мест паломничества, расположенных в Ферганской долине, раскрываются их территориально-исторические, культурные и архитектурные особенности. В статье особое внимание уделяется роли этих комплексов в развитии паломнического туризма, а также их архитектурным стилям, композиционным решениям и ремесленным традициям. Также обсуждались вопросы